



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

XORIJIY TILLAR YO'NALISHI TALABALARIGA EKOPEDAGOGIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNI AMALGA OSHIRISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI

Murtozayeva Mahfuza Murtozayevna
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
edelveys_2020@mail.ru

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15178827>

Annotatsiya. Maqolada xorijiy tillar yo'nalishi talabalarida ekopedagogik kompetentlikni rivojlantirishning tarbiyaviy ahamiyati, uning imkoniyatlari to'g'risidagi fikrlar bayon etilgan. Shuningdek, integratsiyalashgan ta'lim va uni rivojlantirishning ahamiyati, ekopedagogikaga oid materiallar, ilmiy xulosalar qayd etilgan. Inson shaxsining faoliyati hozirgi ekologiga bevosita bog'liqligi va ularning ichki dunyosida ekologik mas'uliyatni oshirish to'g'risidagi tavsiflar keltirilgan. Oliy pedagogik o'quv yurtlarida ekologik ta'lim mazmunini boyitish, ijtimoiy jamiyat va uning a'zolari ongiga ekopedagogikani singdirishda muntazam amaliy ishlarning zarurligi to'g'risida fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar. talabalar, ekologiya, ta'lim, tadbirlar, rivojlantirish, ekopedagogika, ijtimoiylashuv.

O'zbekistondagi xorijiy oliy ta'lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xalqaro huquq va munosabatlar, biznesni boshqarish, dasturlash va boshqa zamonaviy yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlanadi. Xususan, AQSH, Buyuk Britaniya, Koreya Respublikasi, Rossiya, Hindiston, Singapur, Malayziya va boshqa davlatlar bilan hamkorlikda 22 ta xorijiy oliy ta'lim muassasasi va filiallari faoliyat ko'rsatmoqda. Oliy ta'lim muassasalari huzurida tayyorlov kurslari faoliyati yo'lga qo'yilib, qulay shartlar va qator imtiyozlar asosida abituriyentlarni o'qishga tayyorlash ishlari olib borilmoqda.

Oliy pedagogik ta'limda "Umumiy pedagogika", "Umumiy pedagogika va psixologiya", "Pedagogik aksiologiya". "Ijtimoiy pedagogika", "Pedagogik va psixologik fanlarni o'qitish metodikasi", "Pedagogik texnologiya", "Qiyosiy pedagogika" kabi fanlarning ahamiyati shundaki, ulardagi materiallar, ilmiy xulosalarni o'rganish tufayli talaba-yoshlar, inson shaxsining, faoliyatining hozirgi ekologik ahvolga bevosita bog'liqligini anglaydi.¹ Jamiyatda har bir insonning ichki dunyosi bilan ekologik mas'uliyatini oshirish uchun muntazam harakat lozim. Talabalar jamiyatimiz ijtimoiy, iqtisodiy yuksalishida muhim vazifani bajaradilar, ular ekologik jihatdan yuksak bilimga ega bo'lgan barkamol avlodning tarbiyasi

¹ Murtozaeva M.M. Ekopedagogika. Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2023. – 200 b.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

uchun mas'uldirlar. Bunday talab ularning ekologik bilimlarni chuqur egallashlarini, oliy pedagogik ta'lim tizimidagi fanlarni, yangi innovatsion texnologiyalar asosida chuqur o'rganish, ushbu fanlarning bevosita mavjud ekologik vaziyat bilan aloqadorligini tushunib olishlarini, ekologik ma'lumotlar, xulosalar, qarashlar, ilmiy yo'nalishlar mazmunini bilishni talab qiladi. Xorijiy tillar yo'nalishi talabalariga o'quv amaliyoti va pedagogik amaliyot olib borish, umumta'lim maktablarida o'quvchilar bilan ishlash jarayonida ham atrof-muhit muhofazasiga doir materiallar bilan ishlash, undan tarbiyaviy ishlarda samarali foydalanilmoqda.

Xorijiy tillar yo'nalishi talabalariga ekologik vaziyatning mohiyatini tushuntirishda, O'zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan har yili ekolog jurnalistlar bilan hamkorlikda festival o'tkazilishi odat tusiga kirganligi va ushbu tadbir natijasida matbuotda e'lon qilingan ekologik mazmundagi materiallarni mustaqil o'rganish taklif qilinadi. Ushbu tanlovning asosiy maqsadi ekolog jurnalistlar faoliyatini qo'llab-quvvatlashdir. Jamoatchilikni jumladan, talaba-yoshlarga tabiatni himoya qilish, undan unumli foydalanish bo'yicha olib borilayotgan samarali ishlar natijasini yaqindan tanishtirishga qaratilgandir. Xorijiy tillar yo'nalishi talabalarida ekopedagogik kompetentlikni rivojlantirishga nodavlat va notijorat tashkilotlari (NNT) ham o'z hissasini qo'shmoqda, ular davlat tashkilotlari bilan hamkorlikda talaba yoshlar orasida tarbiyaviy ahamiyatga molik ekologik tadbirlarni o'tkazib kelishmoqda. Tarbiyaviy ekologik yo'nalishdagi samarali faoliyati bilan "Logos", "Ekosan", "Amudaryo va Orol himoyachilari ittifoqi", "Hayot", "Buloqcha" kabi nodavlat va notijorat tashkilotlari talaba yoshlar e'tiborini qozonmoqda.²

Bugungi kunda ekologik yo'nalishdagi 100 dan ortiq nodavlat notijorat tashkilotlarni birlashtirgan O'zbekiston Ekologik harakatidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga saylangan deputatlar oldida katta va mas'uliyatli vazifalar turibdi. Xalqaro ekologik tashkilotlar bilan hamkorlikda talaba-yoshlar hamda ularning muntazam ishtirokida "Ekologiya va salomatlik" kunlari o'tkazib kelinmoqda.³ O'tkazilayotgan tadbirlar natijasida har yili kuz va bahor oylarida ariq zovurlar tozalanadi, shaharlar va qishloqlarda vujudga kelgan chiqindilar yo'q qilinadi yoki belgilangan xavfsiz joylarga to'planadi,

² Murtozayeva M.M. Ta'limda ekopedagogik o'quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va rivojlantirish. Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. – Namangan, 2024. – 5-son. – B. 1123-1126.

³ Qosimova N. Global iqlim o'zgarishi va jurnalistika. O'quv-amaliy qo'llanma. –Toshkent: Jurnalistlarni qayta tayyorlash markazi, 2016. – 96 b.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

zararsizlantiriladi. Ekologik harakatning barcha viloyatlardagi ushbu tadbirlarning tashkilotchisi va ishtirokchisi talaba-yoshlardir. Ekologik tarbiyaga oid faoliyatda erishilgan natijalar oliy o'quv yurtlari talabalarining faol ishtiroki tufaylidir. Ekologik harakatning tashabbusi va bevosita ishtirokida talaba-yoshlar orasida "Ekofestival"lar o'tkazish an'anaga aylangan. "Ekofestival" doirasida xalqaro ekologiya "Yer" va "Suv", "Atrof-muhitni asrash" kunlari kabi tadbirlar o'tkazadi. Shuningdek, "Mustaqillik kuni", "Navro'z" va boshqa milliy bayramlarimizga bag'ishlanib mahallalarda talabalar, tadbirkorlar, tadbirkor yoshlar ishtirokida ekologiya kunlari tashkil etiladi. Ekologik festivallar "O'zbekiston milliy parklari", "Ekoturizm va barqaror rivojlanish" hamda "Biz Orol bolalari" kabi mavzularda tashkil etilmoqda.⁴

Xorijiy tillar yo'nalishi talabalar orasida ekopedagogik kompetentlikni rivojlantirish muammolariga bag'ishlangan ko'rik tanlovlari, bolalar badiiy ijodiy namunalari, ko'rgazmalari, ekoturizm rivojlanishini targ'ib etuvchi tadbirlarning muntazam sur'atda tashkil etilayotgani va o'tkazilayotgani muhim ahamiyat kasb etmoqda.⁵ Ekologik harakatning mamlakatimiz yoshlarida ekopedagogik kompetentlikni rivojlantirish borasidagi amaliy va tarbiyaviy ishlardan yana biri aholi orasida "Eng yaxshi shahar", "Eng yaxshi tuman", "Eng yaxshi muassasa", "Eng yaxshi mahalla", "Toshkent ekologiyasi: yoshlar tashabbusi", "Mening shahrim – mening uyim" kabi ekologik, tarbiyaviy ahamiyatdagi tadbirlarni o'tkazayotganligi yoshlar orasida ekologik tushuncha, atrof-muhitni asrashga e'tibor, tabiat in'omlariga insoniy hurmat, ya'ni ekologik madaniyatning yangi jihatlarini vujudga keltirmoqda. Ekologik harakatlarning ta'siri bevosita mamlakatimiz yosh olimlari e'tiborini ushbu masalalar yechimiga ham qaratmoqda. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining soha institutlari, universitetlarda faoliyat ko'rsatayotgan yosh tadqiqotchi-pedagoqlari, doktorant va tayanch doktorantlar, mustaqil izlanuvchilarning ilmiy tadqiqotlarida ekologik muammolarning ma'lum qismlari bo'yicha yechim izlanmoqda. Yosh ilmiy tadqiqotchilarga xalqaro va Respublikamiz darajasidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda ishtirok etish, ilmiy maqolalarini to'plamlarda chop etishga amaliy yordam bo'lmoqda. Eng muhim natijalardan biri yosh olimlarning ilmiy xulosalari, ilmiy ishlari va qo'lga kiritgan natijalari asosida berilgan takliflar ekologik tizim amaliyotiga kiritilmoqda.

⁴ Murtozaeva M.M. Ekopedagogika. Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2023. – 200 b.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 maydagi "O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 434-son qarori. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.05.2021 y., 09/21/320/0482-son.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Xorijiy tillar yo`nalishi talabalari orasida ekologik ma`rifat, tarbiyaviy ahamiyat kasb etuvchi amaliy ishlar o`tkazilmoqda. Qishloq turmush madaniyati, ijtimoiy salomatlik va ekologiyaga oid loyihalarning hayotga tatbiq etilganligi qishloqlarimizda istiqomat qilayotgan yoshlarning ekopedagogik kompetentligini rivojlantirish, ularning ekologik tarbiyalanishida muhim omillardan bo`lmoqda.⁶ Talaba-yoshlarning ekologik tarbiyasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan bir qator ishlar ta`lim tizimidagi muhim vazifalardan biri sanaladi. Oliy ta`limning qator muassasalarida yuqori malakali oliy ma`lumotli ekolog mutaxassislar tayyorlanmoqda. O`zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo`mitasi tomonidan ekologik mavzudagi maxsus adabiyotlar nashr qilinishi yo`lga qo`yilgan.

Jahondagi yetakchi mamlakatlar tomonidan e`tirof etilishi munosabati bilan amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarda yoshlarning ekologik tarbiyasi muhim o`rin egallaydi. Shu munosabat bilan uzluksiz ta`lim tizimi ekologik ta`limning takomillashuviga alohida e`tibor qaratib kelmoqda. Demokratik islohotlarning keng miqyosda olib borilishi va ijtimoiy fuqarolik jamiyatining rivojlantirilishi jarayonida talabalar ekologik tarbiyasi masalalari yechimi uzluksiz ta`limning barcha bo`g`inlarida faol ishtirok etishni taqozo etadi. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish davrida oliy ma`lumotli pedagog mutaxassislar tayyorlash va ular ekopedagogik kompetentligini, ekologik tarbiyalanganlik darajasini rivojlantirish bo`yicha oliy ta`limdagi bir qator fanlar o`quv dasturlari, ma`ruzalar matnlari tizimi takomillashtirildi. Qayd etish lozimki, oliy ma`lumotga ega bo`lgan bakalavrlarning O`zbekiston ekologik harakatiga a`zo bo`lishlari, ular tomonidan ekologik masalalar yechimiga taklif va mulohazalar bildirishlari va ilmiy xulosalar taqdim etilayotganligi ta`lim tizimidagi samarali tarbiyaviy ishlar natijasidir.

Xorijiy tillar yo`nalishi talabalariga pedagogika fanlarini ekologik ta`lim mazmuni bilan boyitib o`qitish jamiyatni modernizatsiyalash davridagi maqsad va vazifalarni fuqarolar ongiga singdirishda, jumladan, yoshlarning O`zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, nutqlari, farmon va qarorlarida, ekologiya sohasiga tegishli nazariy fikrlar, xulosalar, aniq bayon qilingan vazifalarning mohiyatini o`rganishlarida dastur va metodologik asos vazifasini o`tayapti. Mamlakat

⁶ Murtozayeva M.M. Ta'limda ekopedagogik o`quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va rivojlantirish. Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. – Namangan, 2024. – 5-son. – B. 1123-1126.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

rahbarining bevosita mintaqa tabiiy resurslariga taalluqli xulosalari talabalarimizda mavjud suv resurslaridan tejamli, oqilona foydalanish mas'uliyatini rivojlantirishda muhim omilni bajaradi. Talaba-yoshlarga ekologiyaga doir mavzularni tushuntirishda, muammoning mazmunini va O'rta Osiyoda vujudga kelgan ekologik qiyinchiliklar, ularning asosiy sabablarini ochib berish ta'lim oldidagi muhim vazifalardan biridir. Umuman olganda, tabiiy resurslarning mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rni muttasil oshib borayotganligi, mavjud yer usti va yer osti tabiiy resurs manbalaridan xo'jalik tarmoqlarida unumli foydalanish barcha mutaxassislar va uzluksiz ta'limda faoliyat ko'rsatayotgan ekologlar oldida ham muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimizda ekologiyaga oid muammolarning kun sayin global ahamiyat kasb etayotganligini inobatga olib, so'nggi yillar davomida muhim ustuvor vazifalar qatorida atrof-muhit muhofazasi hamda ekologik madaniyat, shuningdek, ekologik ta'lim va tarbiya, ekologik ma'rifat masalalariga e'tibor kuchayganligi bois xorijiy tillar yo'nalishi talabalarining ekopedagogik kompetentligini rivojlantirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 maydagi "O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 434-son qarori. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.05.2021 y., 09/21/320/0482-son.
2. Murtozayeva M.M. Ta'limda ekopedagogik o'quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va rivojlantirish. Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. – Namangan, 2024. – 5-son. – B. 1123-1126.
3. Murtozaeva M.M. Ekopedagogika. Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2023. – 200 b.
4. Qosimova N. Global iqlim o'zgarishi va jurnalistika. O'quv-amaliy qo'llanma. –Toshkent: Jurnalistlarni qayta tayyorlash markazi, 2016. – 96 b.